

**QALBLARDASAN MUDOM ZULFIYASIYAM.****Umarova Nodirabegim****Tibbiy biologiya fakulteti 2-kurs****Talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.7627490>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o'zbek shariyatining yorqin nomoyondasi, o'z o'rniga va o'z uslubiga ega bo'lgan, o'zbek qizlari havas bilan boqadigan Zulfiyaxonim xotirasiga bag'ishlanadi.

Maqolada Zulfiyaxonimning hayoti, o'zgacha asarlari, va o'z dunyosiga ega bo'lgan ruhiyatini yoritib berishga harakat qilinadi.

Yana kelib bokira bahor.

Xotiramga qo'shiq kuylasa

Ilk kunida eslayman har on

Zulfiyaning she'rin o'ylasam

Ruhga bir dam oromin berib

Chayqaladi o'sha namatak

Qoyasida senga dil berib

Zulfiyani kutar jonhalak.

O'sha sevgi, o'sha dard guvoh

Kulguinga ko'milgan yillar

Yolg'iz boshing egganlar gumroh

Eh Zulfiyam sen kerak dillar.

Zulfiya Isroilova – taniqli va iqtidorli o'zbek shoirasi. U nafaqat ijodi bn shoir, hayoti bilan, fe'l atvori bilan hozirgi kungacha va bundan keyin ham o'zbek qizlari uchun o'rnak boladigan haqiqiy sodiq, vafodor, kuchli ayol timsolidir.

Zulfiyaning o'ziga xos ijodi zamondoshlarimizning qalbi va ruhiyatining haqqoniy ifodasidir.

Hammamizga ma'lumki Zulfiyaxonim o'zbek adibi atoqli va ardoqli yozuvchisi, shoiri bizga koplab muhim asarlari bilan qalbimizda qolgan, afsuski hayotdan erta ko'z yumgan Hamid Olimjonning rafiqasi edi.

Zulfiya Isroilova 1915-yil Toshkent shahrining qadimiy degrez mahallasida tavallud topgan. Avvalo boshlang'ich maktabda so'ng xotin qizlar bilim yurtida tahsil olgan. Shundan keyin turli nashriyotlarda 1936-1980-yillar oralig'ida qariyb 30 yil mobaynida respublikamizda keng tarqalgan "Saodat" nomli xotin-qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lgan.

Zulfiyaning ulkan istedodi faqat yurtimizda emas, balki dunyo miqyosida e'tirof etilgan. u-xalqaro "Nilufar" mukofoti egasi.

Shoira she'rlarining el aro mashhurligi tasidif emas. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlarini ilg'ovchi qizaloq ekanligi bilan ajalib turuvchi qizaloq edi. Yosh Zulfiyaning badiiy ijodga ishtiyoqini oilaviy muhit ham uni alangalantirdi. Shoira bolaligini shunday eslaydi: Otamni Isroi degrez der edilar. U kishi juda zahmatkash, shijoatli, sabirli inson edilar. Men uchun u kishidanda qudratli inson yo'qdek tuylardir, matonat va shijoatni o'sha kishidan o'rganganman" deyдилar. Onalari esa juda kamgap va fikrlarida chuqur tafakkuri bo'lgan biroflar fikriga tobe bo'lmaydigan, mutelik va zaiflikdan yiroq ayol bo'lganlar. "Onam juda ko'p afsona va ertaklar, dostonlar aytib berganlar" deb malumot bergan shoiramiz.

Zulfiya shariyati anashunday sof va pokiza buloqlardan suv ichgan. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhini g'ajib tashlay oladigan hijron to'g'risidagi tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraning barcha ayollarga, barcha onalarga, barcha mashuqalarga xos tushunarli anglanarli bo'lgan shariyati aslo eskirmaydi.

Uning asarlarida halol inson tuyg'ularining porloq yulduzi hamisha charaqlab turadi.

Xalq orasida "Oydinda", "Sensiz", "Yurak", "Bahor keldi seni so'roqlab", "O'g'irlamang qalamim bir kun", "Bo'm-bo'sh qolibdi bir varoq qog'oz", "O'lim si ra bo'lmaydi urush", "Mushoira" nomli she'rlari mashhur. Uni farhod der edilar, "Quyoshli qalam", "Xotiram siniqlari" kabi lirik va liro-epik dostonlar muallifi.

Iqtidorli shoira va yozuvchi, inson inson qalb tug'yonlarini o'tkir bilimdi bo'lib, turli janrlarda asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she'rlar hikoyalar, ocherklar, publististik, maqolalar va gazeta xabarlar.

Zulfiyaxonim haqida ko'plab yozuvchi adiblarimiz ham o'z fikrlarini bildirishgan. Misol uchun.

Abdulla Oripov, O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri.

AJOYIB SHOIRA OPAMIZ.

Eng avvalo muhtaram Zulfiya opamizni kattayu kichik adiblar qatori men ham chin dildan muborakbod etaman. Zulfiya opa deganda da'atan ko'z oldimizda, turfa chechaklar bilan bezatilgan bir chamanzor keladi. Bu gulzor shariyat degan gullarning muattar bo'ylari bilan orolangandir. Zulfiya opa gaplarida, maqolalarda o'zlarini juda kamtarin tutadilar kam ijod qilganliklarini chiroyli bir nadomat bilan aytib o'tardilar. Bu gaplar chindan ham kamtarlik va samimiyat bilan aytilgan. Lekin gap miqdorda emasligi hammamizga ayon.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Zulfiyaxonim o'zbek shariyatida o'ziga xos o'rniga ega shoir bo'lishi bilan birgalikda haqiqiy sof insoniyli xislatlari bilan birgalikda, barcha olijanob tuyg'ularga ega ayoldir.

Zulfiyaxonimni ijodiga chuqurroq nazar solish orqali yana bir karra amin bo'ldimki o'zbek adabiyoti xx asrda har qancha ziddiyatli mashaqqatli va murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lmasin umda bir qator manodagi ijodkorlar eshitib chiqqan va ular orasidagi porloq yulduzlardan biri Zulfiyaxonim edi. Bu hayotda har bir inson har xil sinovlar bilan sinaladi. Bazilar o'sha sinovlardan o'tuvchilar bo'ladi va muoffaqiyatga erishadilar, bazilar yiqiladi, bazilar esa o'sha sinovdan o'tganlarning hayotini kuzatib yanada kuchli bo'lishga harakat qiluvchilardir. Biz uchun ham Zulfiyaxonim ham sinovlarga dosh berib yengishga harakat qilgan kuch sifatida o'rnak olishga arzidigan Allohning bandalaridandir.

### References:

1. Sultonova M. "Ijod sahifalari" Toshkent 1975.
2. Zulfiya biografiyasi Toshkent 1977.